XALQ DEPUTATLARI MIRZACHO‘L TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

Gagarin sh. 130300, O‘zbekiston ko‘chasi, 29-uy. Tel: (72) 312-21-11

2024 - yil 10 - yanvar VI-53-2-3-51-K/24 Mirzacho‘l tuman hokimligi

Mirzacho‘l tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2024 yilga belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi hamda 437-moddalariga asosan 2024 yil uchun Mirzacho‘l tumanida belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarni mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2024 yilga yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq Mirzacho‘l tumani uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bunda, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, yuqorida 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Lapasov, tuman moliya bo‘limi v.b Z.Uzbekov, tuman soliq inspeksiyasi (A.Boliqulov)larga 2027 yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi VI-55-104-3-51-K/23-sonli qarorining 1, 2-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb xisoblansin.

6. Mazkur qaror “Mirzacho‘l ovozi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Qaror 2024 yil 1 yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Lapasov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi, tuman hokimi **Sh.Axmedov**

Xalq deputatlari Mirzacho‘l tuman
Kengashining
2024-yil 10-yanvardagi
VI-53-2-3-51-K/24-son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchuni tumanda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shahslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamayturuvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so’mda

T/R	QFY va MFYlar nomi	2024 yil				
		2024 yil soliq stavkasi Soliq kodeksiga asosan	Xalq deputatlari viloyati kengashining qaroriga asosan qo'llanilgan koeffitsienti	2024 yil soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman kengashi qaroriga asosan qo'llanilgan koeffitsient	2024 yil soliq stavkasi
1	Bogbon MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,00	3 600,0
2	G‘alaba MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,00	3 600,0
3	Gulzor MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,00	3 600,0
4	Dustlik MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,10	3 960,0
5	Erjar MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,10	3 960,0
6	Ipak yuli MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,00	3 600,0
7	Mirzadala SHFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,10	3 960,0
8	Mustakillik MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,10	3 960,0
9	Paxtazor MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,00	3 600,0
10	Toshkent MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,00	3 600,0
11	Uzbekiston MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,00	3 600,0
12	Yangidala MFY	3 600,0	1,00	3 600,0	1,00	3 600,0

Xalq deputatlari Mirzacho‘l tuman
Kengashining
2024-yil 10-yanvardagi
VI-53-2-3-51-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun tumanda jismoniy shaxslar bo’yicha (dexqon xo’jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamayturuvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so’mda

T/R	QFY va MFYlar nomi	2024 yil				
		2024 yil soliq stavkasi Soliq kodeksiga asosan	Xalq deputatlari viloyati kengashining qaroriga asosan qo'llanilgan koeffitsienti	2024 yil soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman kengashi qaroriga asosan qo'llanilgan koeffitsient	2024 yil soliq stavkasi
1	Bogbon MFY	320,0	0,97	310,40	0,75	232,80
2	G‘alaba MFY	320,0	0,97	310,40	0,89	276,26
3	Gulzor MFY	320,0	0,97	310,40	0,70	217,28
4	Dustlik MFY	320,0	0,97	310,40	0,80	248,32
5	Erjar MFY	320,0	0,97	310,40	0,89	276,26
6	Ipak yuli MFY	320,0	0,97	310,40	0,75	232,80
7	Mirzadala SHFY	320,0	0,97	310,40	0,75	232,80
8	Mustakillik MFY	320,0	0,97	310,40	0,80	248,32
9	Paxtazor MFY	320,0	0,97	310,40	0,75	232,80
10	Toshkent MFY	320,0	0,97	310,40	0,75	232,80
11	Uzbekiston MFY	320,0	0,97	310,40	0,70	217,28
12	Yangidala MFY	320,0	0,97	310,40	0,70	217,28